



## BUYUK BRITANIYA KREATIV IQTISODIYOT RIVOJLANISH TAJRIBASI

*Daminova Madinaxon Bahromjon qizi,*  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Ekonometrika" kafedrasida doktoranti,*  
*Elektron manzil: [daminovamadina1992@gmail.com](mailto:daminovamadina1992@gmail.com)*  
*ORCID: 0009-0003-4705-8576*

## GREAT BRITAIN: EXPERIENCE IN CREATIVE ECONOMY DEVELOPMENT

*Daminova Madinaxon Bahromjon qizi,*  
*PhD Student, Department of "Econometrics" Tashkent State University of Economics,*  
*Email: [daminovamadina1992@gmail.com](mailto:daminovamadina1992@gmail.com)*  
*ORCID: 0009-0003-4705-8576*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiyotning eng dinamik tarmoqlaridan biri bo'lgan ijodiy (kreativ) iqtisodiyotning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqotda "ijodiy sanoat" tushunchasining shakllanish tarixi, xususan, Buyuk Britaniya tajribasi misolida sohaning alohida jihatlari tahlil qilingan. Maqolada tarixiy, empirik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan holda, ijodiy sohalarning yalpi qo'shilgan qiymatdagi taqsimoti va yillar mobaynida o'sishi yoritiladi. Yakunda xalqaro tajriba asosida O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va kreativ tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif va xulosalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijodiy iqtisodiyot, ijodiy sanoat, intellektual mulk, Buyuk Britaniya tajribasi, kreativ tadbirkorlik, madaniy meros, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy o'sish.

**Abstract:** This article examines the theoretical and practical foundations of the creative economy, one of the most dynamic sectors of the modern global economy. The study analyzes the history of the "creative industries" concept, focusing on the UK experience, its 13 key sectors, and the pivotal role of intellectual property in generating economic value. By utilizing historical, empirical, and comparative analysis

methods, the article highlights the distribution of gross value added (GVA) across creative sectors and their growth over the years. Based on international best practices, the paper provides strategic recommendations and conclusions for diversifying Uzbekistan's economy and fostering creative entrepreneurship.

**Key words:** Creative economy, creative industries, intellectual property, UK experience, creative entrepreneurship, cultural heritage, digital technologies, economic growth.

**Kirish.** Keyingi paytlarda ijodiy (kreativ) sohalar hodisasi tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Chunki bu yo'nalish nafaqat zamonaviy ijtimoiy-madaniy makonning, balki tadbirkorlikning ham eng dinamik va shu bilan birga, noaniqliklar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. "Ijodiy sanoat" (creative industries) atamasi iqtisodiy tushunchadan tortib ijtimoiy-madaniy ma'nolargacha bo'lgan keng ko'lamni qamrab olishi bejiz emas.

Kreativ iqtisodiyot — bu ancha keng tushuncha bo'lib, uni iqtisodiyotning yangi turi sifatida talqin qilish lozim. Bunda ishlab chiqarish jarayoni an'anaviy resurs turlariga tayanmaydi, mahsulot qiymatining ortishi esa yaratuvchining tasavvuri va ijodkorligi

hisobiga yuz beradi, bu esa an'anaviy usuldan tubdan farq qiladi.

Ijodiy iqtisodiyotni iqtisodiy agentlar tomonidan madaniy, badiiy va innovatsion tovar hamda xizmatlar yaratiladigan tizim deb ko'rish mumkin. Shu bilan birga, ushbu mahsulotlarni yaratish uchun ularga yirik ishlab chiqarish fondlari shart emas; ular o'z ishlarini namoyish etishlari va g'oya almashishlari mumkin bo'lgan shahar yoki madaniy makonlarda faoliyat yurita oladilar. Ijodiy iqtisodiyot kreativ yondashuv bilan tavsiflanadi hamda loyihaviy fikrlash, ijodiy tasavvur (modellash) va amaliy yo'naltirilganlikka asoslanadi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Turli manbalarda "ijodiy iqtisodiyot" tushunchasi turlicha nomlanadi. Masalan, Bloomberg va "Business Week" jurnalida "creative economy" (ijodiy iqtisodiyot), T. Adorno va M. Xorkxaymer asarlarida "cultural industry" (madaniyat sanoati), Buyuk Britaniya Madaniyat, ommaviy axborot vositalari va sport departamentining rasmiy hujjatlarida esa "creative industries" (ijodiy sanoat) atamaları qo'llanilgan. Ushbu tushunchalarning asosiy mazmun-mohiyati jahon iqtisodiyotida ijodkorlikka asoslangan ishlab chiqarishni qaror toptirishdan iboratdir.

Bundan tashqari, Buyuk Britaniya Madaniyat vazirining sobiq maxsus maslahatchisi Kris Smit, Britaniya hukumatining Ijodiy sanoat kengashi a'zosi, Britaniya Kengashining San'at va ijodiy iqtisodiyot bo'yicha maslahat guruhi raisi hamda London universitetining Goldsmit kolleji qoshidagi Ijodiy va madaniy tadbirkorlik instituti maslahat kengashi a'zosi Jon Nyubigin ushbu mavzu bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib bordi.

Shuningdek, Londondagi "Nesta" tashkilotining Ijodiy sanoat siyosati va tadqiqotlari bo'yicha direktori Hasan Baxshi

ham ijodiy sanoatni o'lchash masalalarini o'rganib, bu borada bir qancha uslublarni taklif etdi. Bunga qo'shimcha ravishda, "Tom Fleming Creative Consultancy" asoschisi Doktor Tom Fleming ijodiy iqtisodiy siyosatni qo'llab-quvvatlashda Buyuk Britaniyaning yetakchi rolini aniqlab berdi.

Mahalliy olimlardan esa kreativ iqtisodiyotni turizmga bog'lab Sh.Abdurasulov, M.Pardayev, O.Pardayev, A.Ochilovlar, kreativ iqtisodiyot samaradorligiga erishish bo'yicha esa Sh.Shonozarov, O.Rajabboyev, B.Rustamov kreativ industriya haqida esa O.Dusmuhamedov, Z.Jumanazorov hamda Kreativ iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotimizdagi o'rnini esa A.Abduvaliyev, S. Xamidullayevlar o'rganishgan.


**Metodologiya.** Maqolada Buyuk Britaniya ijodiy iqtisodiyotini o'rganishda tarixiy va empirik metodlardan foydalanildi. O'zbekiston uchun takliflar ishlab chiqishda esa analogiya, qiyosiy tahlil hamda mavhumlikdan aniqlikka o'tish usullari qo'llanildi.

**Material va metod.** Gongkong universiteti faxriy professori Jon Nyubiginning ta'kidlashicha, "Ijodiy sanoat" atamasi taxminan yigirma yil avval paydo bo'lgan. Bu atama ba'zilar insoniyat tarixidagi eng qadimiy mashg'ulotlar bo'lgan, ba'zilar esa raqamli texnologiyalar paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan faoliyat turlarini tasvirlash uchun ishlatiladi. Tan olish kerakki, ijodiy iqtisodiyot nafaqat raqamli texnologiyalarni, balki teatr, raqs, musiqa, kino va tasviriy san'at kabi sohalarni ham o'z ichiga oladi.

Garchi ijodiy sanoat avvalo AQSh iqtisodiyotida muhim o'rin tuta boshlagan bo'lsa-da, Buyuk Britaniya ushbu sohaga alohida urg'u berishni boshlagan dunyodagi yetakchi mamlakatlardan biriga aylandi. 1997-yilda Britaniyada yangi saylangan

Leyboristlar hukumati ushbu sohaning mamlakat iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan bevosita ta'sirini aniqlash va baholashga qaror qildi.[1] Quyida usbu davlatda kreativ iqtisodiyotning rivojlanishini o'ziga xos jihatlari dalillar va raqamlar asosida ko'rib chiqamiz.

**Buyuk Britaniya tajribasi.** Kreativ industriyalarni iqtisodiy o'sish drayveri sifatida boshqarishni asosiy tamoyil qilib olgan model bo'lib, quyidagi 1-rasmda uni tajribasini 6 ta kategoriya bo'yicha tahlil qilib chiqamiz.



1-rasm. Buyuk Britaniya kreativ iqtisodiy rivojlanish tajribasining o'ziga xos jihatlari[3]

Demak rasmni tahlil qiladigan bo'lsak, Buyuk Britaniyada kreativ industriyalarni bo'yicha siyosat shakllantirish va koordinatsiya tizimida davlat organlari hamda sektor vakillari o'rtasidagi hamkorlik modeli muhim o'rin tutadi. Xususan, Creative Industries Council (CIC) 2011-yilda tashkil etilgan bo'lib, u ijodiy sektorlar vakillari va hukumat o'rtasida strategik muloqot maydoni vazifasini bajaradi.[2] Bundan tashqari Madaniyat, media va sport vazirligi (Department for Culture, Media and Sport-DCMS) bevosita mazkur sohani qo'llab quvvatlash va uni koordinatsiyasi bilan shug'ullanib kelmoqda. Shuningdek, Buyuk Britaniya tajribasida sektorni boshqarishning muhim sharti — aniq ta'rif va tasnifga tayangan statistik monitoringdir. DCMS (Madaniyat, Media va Sport vazirligi)

iqtisodiy baholashlarida kreativ industriyalarni aniq metodologiya asosida o'lchanadi. Amaliy tasnifda kreativ industriyalarni odatda 9 ta sub-sektor kesimida keltiriladi.[3] Bundan tashqari Buyuk Britaniya amaliyotida kreativ kontent ishlab chiqarish (film, TV, animatsiya, video o'yinlar, teatr/orchestr, muzey va galereya ko'rgazmalari kabi yo'nalishlar) bo'yicha kompaniyalarga korporativ soliq yukini kamaytirish imkonini beruvchi "creative industries tax reliefs" mexanizmi joriy qilingan.[4] Yana bir e'tiborga molik jihati Buyuk Britaniyada kreativ industriyalarni innovatsionlashuvi "klaster" yondashuvi orqali kuchaytiriladi. UKRI/AHRC boshchiligidagi "Creative Industries Clusters" dasturi 9 ta tadqiqot va rivojlanish bo'yicha hamkorlik (universitetlar-biznes-

hududiy siyosatchilar)ni birlashtirib, kreativ tarmoqlarda o'sishni tezlashtirishga bag'ishlangan.[5] Qayd etish joizki, rasmiy baholashlarga ko'ra, 2024-yilda Buyuk Britaniyada kreativ industriyalar yalpi qo'shilgan qiymatga (GVA) taxminan £124,0 mlrd hissa qo'shgan va bu umumiy GVAning 5,2% ini tashkil etgan[3].


**Natijalar.** Buyuk Britaniya tajribasidan quyidagi amaliy natijalar olish mumkin:

- "Ta'rif-tasnif-statistika" uchligi bo'lmasa, siyosat instrumentlarini aniq nishonlash qiyin;
- Fiskal rag'bat (tax relief) kreatorlar va kontent ishlab

chiqaruvchilar uchun bozorga kirish to'sig'ini yumshatadi;

- Klasterlar dasturi innovatsion mahsulot, xizmat va IM yaratishni tezlashtiradi.

Qo'shma Qirollikning umumiy YaIM dagi Madaniyat, Media va Sport (DCMS) vazirligi sohalarining ulushi 2024-yilda 9,4% ni tashkil etgan. Agar vazirlik sohalarini umumiy deb oladigan bo'lsak, unda kreativsohaning ulushi qariy 60% ni tashkil etadi. Quyidagi 2-rasmda DCMS sohalarini yalpi qo'shilgan qiymatning taqsimotini ko'rib chiqamiz.




**2-rasm. DCMS sektorlarida yalpi qo'shilgan qiymat (GVA) va sektorlar o'rtasidagi kesishmalar (2024)[2]**

DCMS (Madaniyat, Media va Sport vazirligi) statistic ma'lumotlariga ko'ra, vazirlikning umumiy qamrab oladigan sohalarida kreativ sohaning ulushi 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra 56,3% ni tashkil etgan.

2024 yilda kreativ industriyalar taxminan 145,8 milliard funt sterling

miqdorida hissa qo'shib, Buyuk Britaniya yalpi qo'shilgan qiymatining (GVA) 5,5 foizini tashkil etdi. Kreativ industriyalar GVA hajmi 2023–2024 yillar oralig'ida 4,6 foizga oshdi va real hisobda pandemiyadan oldingi davrga (2019 yil) nisbatan 19,7 foizga hamda 2010 yilga nisbatan 60,3 foizga yuqori bo'ldi.



2.3-rasm. 2010 yilni 100 deb olgan indeks diagrammasi, bog'langan hajm o'lchovlari (CVM) bo'yicha, 2010 yildan 2024 yilgacha ijodiy sanoatlarning o'sishi[3]

Ijodiy sanoatlarning sof qo'shilgan qiymati (GVA) 2023 yildan 2024 yilga qadar taxminan 4,6% ga o'sdi, bu esa Buyuk Britaniya iqtisodiyoti o'rtacha o'sish sur'atidan (1,0%) yuqoridir. Uzoq muddatda, 2010 yildan 2024 yilgacha, ijodiy sanoatlar GVA ko'rsatkichlari Buyuk Britaniya iqtisodiyotidan tezroq o'sdi (60,3% ga nisbatan 24,3%).

**Munozara.** Buyuk Britaniya va xalqaro tajribadan kelib chiqib, O'zbekistonda ijodiy iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar va takliflarni shakllantirish mumkin:

### 1. Huquqiy va institutsional bazani mustahkamlash

O'zbekistonda ijodiy iqtisodiyotni alohida sektor sifatida tan olish va uning qonunchilik asoslarini yaratish zarur.

- **Terminologiyani standartlashtirish:** "Ijodiy sanoat" tushunchasini qonunchilikka kiritish va Britaniya tajribasidagi kabi 13 ta (yoki mahalliy xususiyatdan kelib chiqib qo'shimcha) tarmoqlarni aniq belgilab olish.

### • Intellektual mulk himoyasi:

Ijodkorlarning daromad olishini ta'minlash uchun mualliflik huquqi va patent tizimini raqamlashtirish hamda ruxsatsiz nusxa ko'chirishga (piratlikka) qarshi kurashni kuchaytirish.

### 2. Iqtisodiy resurslar va infratuzilma

Ijodiy soha vakillari uchun yirik zavodlar emas, balki g'oya almashish muhiti muhim.

- **Kreativ xablar (Creative Hubs):** Bo'sh turgan sobiq sanoat binolari yoki madaniyat saroylarini ijodkorlar uchun "Coworking" markazlari va art-rezidensiyalarga aylantirish.

- **Imtiyozli moliyalashtirish:** IT-parklar tajribasidan foydalangan holda, ijodiy soha vakillari (dizaynerlar, hunarmandlar, animatorlar) uchun soliq imtiyozlari va "soft" kreditlar tizimini joriy etish.

### 3. Ta'lim va inson kapitali

Ijodiy iqtisodiyotning asosi — iste'dod. Shuning uchun ta'lim tizimini "Loyiha tafakkuri" (Project thinking) asosida isloh qilish lozim.



• **STEAM ta'limi:** San'atni (Arts) aniq fanlar bilan integratsiya qilish.

• **Tadbirkorlik ko'nikmalari:** San'at va madaniyat oliygohlarida talabalarga o'z ijod mahsulini qanday qilib tijoratlashtirish (Creative Entrepreneurship) fanlarini o'tish.

#### 4. Milliy brending va eksport

O'zbekistonning boy madaniy merosini zamonaviy kreativ texnologiyalar bilan birlashtirish.

#### Etno-dizayn va IT integratsiyasi:

Milliy hunarmandchilikni raqamli dizayn va global elektron savdo platformalari (Etsy, Amazon) orqali eksport qilishga ko'maklashish.

**Kino va Media:** O'zbekistonni "Creative Tourism" (ijodiy turizm) markaziga aylantirish uchun xalqaro

kinoloyiha va festivallarga investitsiya kiritish.

#### Xulosa

Demak Buyuk Britaniya kreativ iqtisodini rivojlanishing asosiy jihatlari davlatda yuqori o'sish sur'ati, tez tiklanish hususiyatiga egaligi (2024-yilda pandemiyaga qaramay YaQQ dagi ulushi 5,5%ni tashkil etdi), aniq statistik monitoring tizimini mavjudligi, davlat va xususiy sektorning o'zaro aloqasini mavjudligi va sohada faoliyat olib boruvchilar uchun fiscal rag'batlarning mavjudligidan iborat.

Britaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, Kreativ iqtisodiyot O'zbekiston uchun iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va milliy madaniy merosni eksport qilishda eng istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Jon Nyubigin (British Council):** Newbigin, J. (n.d.). *What is the creative economy?* British Council Creative Economy. <https://creativeeconomy.britishcouncil.org/guide/what-creative-economy/>
2. **DCMS Iqtisodiy ko'rsatkichlar (Metodologiya):** Department for Culture, Media and Sport. (2024). *Creative industries economic estimates: Methodology*. GOV.UK. <https://www.gov.uk/government/publications/creative-industries-economic-estimates-methodology>
3. **DCMS Yalpi qo'shilgan qiymat (GVA) 2024-2026 hisoboti:** Department for Culture, Media and Sport. (2024). *DCMS sectors economic estimates: Gross value added 2024 (provisional)*. GOV.UK. <https://www.gov.uk/government/statistics/dcms-economic-estimates-gva-2024-provisional/dcms-sectors-economic-estimates-gross-value-added-2024-provisional>
4. **Buyuk Britaniya Parlamenti (Soliq imtiyozlari bo'yicha):** House of Commons Library. (2024). *Creative industries tax reliefs and expenditure credits* (Briefing Paper). UK Parliament. <https://commonslibrary.parliament.uk/>
5. **UKRI va AHRC (Klasterlar dasturi):** UK Research and Innovation. (n.d.). *Creative industries clusters programme*. Arts and Humanities Research Council (AHRC). <https://www.ukri.org/what-we-do/browse-our-areas-of-investment-and-support/creative-industries-clusters-programme/>